

O'ZBEK TILIDAGI MATNLARDA O'ZLASHMA SO'ZLARINING SALMOG'I

Bo'ronova Ra'no

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti stajyor o'qituvchisi

r.buronova@dtpi.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371248>

Annotatsiya. Tilimizda juda ko'p o'zlashma so'zlar mavjud bo'lib, ularning aksari arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan. Ushbu maqolada biz o'zlashma so'zlar salmog'ini ko'rsatish maqsadida muayyan matn tarkibida qo'llangan so'zlarning miqdori, leksik-grammatik xususiyatlari hamda qo'llanish o'rnini haqida o'z mulohazalarimizni aks ettirdik. Shuningdek, o'zlashma so'zlarning turkumi va umumiy tabiatiga xos jihatlarni ham bayon qildik.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'zlar, o'z qatlam, sistema, emotsional-ekspressiv bo'yoq, ot o'zlashma, sifat o'zlashma

Har bir tilning rivojida, albatta, hudud jihatdan yaqin bo'lgan boshqa tillarning ham xizmati katta bo'ladi. Bu ayniqsa noqardosh tillar doirasida yaqqol namoyon bo'ladi. Bir tilga boshqa tilning o'zlashishida ham tarixiy ham xalqaro aloqalar muhim rol o'ynasa, bu tilning boshqa bir tilga ta'sirida qardosh bo'lmagan tillarning bir-biriga o'xshamagan sistemalari sezilarli darajada iz qoldiradi.

Xususan, o'zbek tilidagi badiiy matnlar tahlil qilinganda uning tarkibida o'z qatlam so'zlarining salmog'i asosiy o'rinni egallasa-da, boshqa tillardan o'zlashgan bir qancha so'zlar ham mavjudki, ular ham badiiy asar tilini boyitishga xizmat qiladi va jozibasini ta'minlaydi. Ya'ni o'zga tillardan o'zlashgan so'zlarning mavjud tilda muqobil varianti bo'lsa-da, o'zlashgan birlikdan foydalanish so'zning emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligini ta'minlaydi va asar tilini boyitadi.

Demak, til ijtimoiy hodisa ekan bir tildagi so'zlarning boshqa bir tilga o'zlashish jarayoni ham shu hodisaning ajralmas qismidir. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar matn tarkibida mavjud tildagi asl so'zlar bilan bir qatorda qo'llanilar ekan, bunga ikki sababni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

1. So'z yetishmovchiligi o'zbek tilida aynan o'sha ma'nodagi so'zning mavjud bo'lmasligi.

2. O'zlashgan so'z o'z qatlam birligi bilan aynan ma'nodoshlik hosil qila olishi.

Xususan, A.Mamatovning "Bahor yomg'iri" hikoyasi misolida til xususiyatlarini tarkiban o'rganish jarayonida bir qator o'zlashgan so'zlar mohiyatini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Matn tarkibida qo'llanilgan forsiy va arabiy so'zlar va grammatik birliklarni ajratish jarayonida ularning semantik va grammatik imkoniyatlarini ochishga ehtiyoj tug'iladi. Hikoya matnida jami so'zlar miqdori 1039 tani tashkil qiladi

1. Arabiy so'zlar miqdori: 78

2. Forsiy so'zlar: 60 ta

3. Sof o'zbekcha so'zlar: 895

Shuningdek, boshqa tillarga mansub birliklar ham mavjud, ammo ularning salmog'i badiiy nutqda juda kam ekani ko'zga tashlandi.

Matnda:

Bahor, farzand, girdob, joy, shahar, oyna, balki, soyabonsiz, gap, chora, farzand, hamyon, parda, pardoz, pul, xursand, choy, ohista, ohanrabo, hamkor, bog', ovoz, harchand, xazon, junbush, osmon, sarosima, xona, darz, qadrdon, bahoriy, devorlar, chamanzor kabi forsiy so'zlar bir necha marotaba takrorlanib kelgan. So'zlarning asosiy qismi ot so'z turkumidan o'tgan bo'lib, ba'zilarining asos qismigina forscha bo'lib qo'shimcha qo'shilishi natijasida o'z qatlamga o'zlashgan.

Masala: Forsiy birlik bahordan -iy qo'shimchasi orqali o'zbekcha so'z yasalgan. -dek, -day o'xshatish-qiyoslash munosabatli qo'shimchalari orqali ham ba'zan so'zlar yasaladi (ohanrabo+dek) shaklida. Bu so'zlarga e'tibor bersak asos qismi forscha ot turkumiga oid so'zlar bo'lib qo'shimcha qo'shilishi natijasida sifat turkumiga o'tib qolgan. Fors tilidan faqatgina mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlar emas, balki yordamchi so'z turkumi oid birliklar ham o'tib qolgan. Masalan, vazifadosh bog'lovchi (balki).

Yuqorida aytganimizdek, o'zga qatlam so'zlarining o'zlashishiga birinchi sabab so'z yetishmovchiligi, o'zbek tilida aynan o'sha leksik ma'nodagi so'z mavjud bo'lmasligi. Xususan, hikoya ichida shahar, soyabonsiz, gap, pardoz, choy, ohista, ohanrabo, hamkor, bog', harchand, xazon, junbish, sarosima, darz, qadrdon, devor so'zlari shu sabab bilan o'zlashgan deyish mumkin.

Matndagi yana ba'zi so'zlar esa tilda mavjud birlik yoniga yana bir shu ma'nodagi birlikning qo'shilishi natijasida o'zlashgan va tilning sinonimiyasi boyishiga xizmat qilgan: ko'klam – bahor; bola – fazand; makon – joy; o'pqqon – girdob; ko'zgu – oyna; chog'i – balki; qopchiq – hamyon; aqcha - pul; sekin – ohista; tovush – ovoz; ko'k – osmon

O'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning aksari arab tiliga tegishli bo'lib, forsiy so'zlar o'zlashish miqdoriga ko'ra keyingi o'rinni egallaydi.

Arabchadan mavhum otlardan hissiyot, e'tibor, jur'at, tashvish, xotira, joziba, hayajon, holat, munosabat, taqdir, umr, joziba, ta'sir, tasodif kabi so'zlar o'zlashgan bo'lsa, bir vaqtlar, hozir, ba'zan, avval, avvaldan, shu tariqa, so'zlari so'zlari - ravish so'z turkumidan o'tgan. Surat, quti, sabab, raqam, xotira, odam, kitob, tafsilot, tasodif, sahifa, hujjat, ism, manzil, tabassum, manzil, raqam, javob, masala, qiyos, dunyo, vaqt, aloqa, vujud, safar, muloqat, nuqta, qiyofa, holat, suxbat, munosabat otlardir.

Qaror qilmoq - fe'l turkumidan; ehtimol, rahmat, muborak bo'lsin, xayr - modal birliklar bo'lsa; tibbiy, yaqin - sifat turkumidan o'tgan.

Asos qismi arabcha bo'lgan so'zlarga morfema yoki so'z qo'shish orqali yasalgan so'zlar ham bo'lib: xayr + lash + ayotgan+ da, qaror + qil + moq, bir (old qo'shimcha orqali) + vaqt, shu (ko'rsatkich olmoshi)+tariqa va h.k.

Xuddi, forsiy birliklar kabi arabiy so'zlar ham ikki sababga ko'ra o'zlashib qolgan. Bu ikki sabab orqali o'zbek tiliga juda ko'p arabiy so'zlar kirib kelgan va davrlar o'tishi bilan tilda mustahkamlanib, kengayib o'z ma'nodan ko'chma ma'nogacha tushuncha ifodalash darajasiga kelgan. Shu xususiyatiga ko'ra arabiy so'zlar o'zbek tilida bir necha ma'noni anglatmoqda. Birgina ehtimol so'zining [a.-bardosh berish; chidamlilik; ehtimollik, mumkinlik] 1) Ro'yobga chiqarish, amalga oshirish, yuz berish imkoniyatining mavzudligi; 2) Modal so'z: balki, bo'lsa kerak, bo'lishi mumkin.

Ta'sir [a.-(xotirada) iz, asar qoldirish, ta'sir qilish] 1) Tashqi omillarning kishi yoki¹ narsa holatini o'zgartirish, qo'zg'ash xususiyati. 2) Obro', nufuz, e'tibor. Buxoro jadidlari orasida Usmonli turklarning va tatar boyvachchalarining ta'siri katta.

Hissiyot - [a.-his-tuyg'ular va ularga berilganlik; hissiy holatlar]. Xotini va farzandlari ota eshikka ketganligi uchun yolg'izlikning bosib turgan yuki yanada kuchaygandek tuyilar, shuning uchun ham turli hissiyotlar girdobida qolib ustma-ust tamaki chekardi².

Odam - [a.-odamato; inson] 1) Fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan zot. 2) kishilik jamiyatining ayrim a'zosi shaxs. Odam taftini odam ko'taradi degandek, Nizomjon kelib, uy to'lib qolgandek bo'ldi³. 3) ko'chma ma'noda tuzalib qolmoq, yaxshilanmoq; Tursunboyni ko'rdim odam bo'lib qolibdi⁴ 4) Yaxshi qarab, tarbiya qilmoq, voyaga yetgazmoq. 5) Biror shaxsning tarafdori, ma'lum joydagi xizmatchisi.

Arab tilidan mustaqil so'z turkumlari bilan birgalikda yordamchi va oraliqdagi so'zlar ham o'zbek tiliga o'zlashib qolgan bo'lib ular ham tilda bir emas bir nechta ma'noni anglatishi e'tiborga molikdir.

Masalan: rahmat- [a.-shafqat, marhamat, mehribonlik; achinish]⁵. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning salmog'i o'zbek tilida ancha kengligini yuqoridagi misollar orqali birgina so'zning bir emas, bir nechta o'z ma'nodagi balki ko'chma ma'nodagi so'zlar ichiga kirib borganidan ham bilsak bo'ladi.

Arab tili va fors tilidan o'zlashgan so'zlar nafaqat tub so'z balki yasama so'zga asos ham bo'lib keladi. Masalan: vaqt -[a.-zamon, vaqt, muddat, on, mavsum] Bir+vaqt; Bir vaqtlar ishlatgan, hozirda unutilgan yon daftarchani ko'rib qolganligi sabab bo'ldi⁶

Qaror- [a.-to'xtam, hukm, xulosa; tub asosi esa tinchlik, orom, manzilgoh, turarjoy] +qilmoq- [o'zb.-bajo keltirmoq, bajarmoq, ijro etmoq] ikki so'z qo'shilishi natijasida qo'shma fe'l hosil bo'lyapdi.

Taklif-[a.-buyruq, topshiriq, vazifa, majburiyat] +qilmoq [o'zb.-bajo keltirmoq, bajarmoq, ijro etmoq] qo'shma fe'l yuzaga kelyapdi. Bu kabi misollarni juda ko'p uchratishimiz mumkin.

Bundan tashqari hikoya tarkibida avtobekat - [avto.-lot. qo'zg'aluvchi, harakat qiluvchi] + bekat- [o'zb.-to'xtab dam oluvchi joy] , Mashina-[fr.machina-inshoot, qurilma] Qo'lida og'ir yuki bilan yomg'irga ters o'girilib turgan ayolni ko'rib, mashinani to'xtatdi.⁷

Telefon - [yun.ovoz], tamaki- [a.yoki f.isp.-tabaco- yirik bargli o'tsimon o'simlik va shu o'simlikdan quritib tayyorlaniladigan chekish uchun mo'ljallangan chekimlik]⁸ Hissiyotlar girdobida qolib ustma-ust tamaki chekardi.⁹ Yunoncha, fransuzcha va ispancha so'zlar ham qatnashganini aniqladik. Bu so'zlarning o'zlashishiga asosiy sabab esa yuqorida ko'rsatilgan

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati

² "Yoshlik" jurnali. A.Mamatov. "Bahor yomg'iri". 70-bet

³ Said Ahmad. "Ufq".

⁴ "Yoshlik" jurnali. 2019

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-tom

⁶ "Yoshlik" jurnali. A.Mamatov. "Bahor yomg'iri". 70-bet

⁷ "Yoshlik" jurnali A.Mamatov. "Bahor yomg'iri". 70-bet

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati

⁹ "Yoshlik" jurnali. A.Mamatov. "Bahor yomg'iri". 70-bet

ikki hodisaning biri yani tilda shu so'zning aynan muqobil varyanti yo'qligi sababli o'zlashganiga guvoh bo'lamiz. Fan-texnikada erishilyotgan yutuqlar sababli hudud jihatdan yaqin bo'lmagan va bir til oilasiga tegishli bo'lmagan tillarning o'rtasida ham so'zlar o'zlashib, yaxlitlanib qolishiga sabab bo'lar ekan.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, o'zbek tiliga o'zlashgan birliklarning aksari arab tiliga mansub. Arab tilidan deyarli barcha so'z turkumlariga oid birliklar o'zlashgan. To'g'ridan to'g'ri o'zlashgan birliklarning ko'pchiligi ot va sifat tukumiga mansub bo'lsa-da, o'zbek tilidagi qo'shma fe'llarning aksarida [arabiy leksema + o'zbekcha leksema] qolipi mavjud.

O'zlashish jarayonida fors tilidan o'tgan so'zlar keyingi o'rinni egallaydi va asosan, ot so'z turkumiga oid so'zlar o'zlashib qolgan. Juda ko'plab leksemalar o'z ma'nosiga muvofiq, ba'zi leksemalar ma'nosida o'zgarish bilan qabul qilingan. So'z birikmalari (izofalar)ning ham leksik birliklarga aylanishi ko'p kuzatiladi: dardisar, astoydil, mardi maydon kabi birliklar va h.k.

Fors tilidan o'zlashgan birliklar faqatgina leksik birliklar emas, grammatik birliklarni ham tashkil etadi. Shu xususiyatiga ko'ra fors tili arab tilidan ustunroq turadi: chunki, -ki, toki, agar, -gar, -shunos va h.k.

Yuqorida keltirilgan misollar va dalillardan shu anglashiladiki, hozirgi o'zbek tilining statik holatini mukammal o'rganish uchun, albatta, qardosh bo'lgan tillar qatori qardosh bo'lmagan tillarni ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tilda o'zlashma sifatida qabul qilingan birlikning mohiyatini aniqroq ifodalash uchun aynan o'sha tilning grammatik xususiyatlari va leksikasini bilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati
2. "Yoshlik" jurnali. A.Mamatov. "Bahor yomg'iri". 70-bet
3. Said Ahmad. "Ufq".
4. "Yoshlik" jurnali. 2019
5. O'zbek tilining izohli lug'ati.3-tom
6. O'zbek tilining izohli lug'ati